



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyea Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinova, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinova, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIVAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIVASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIVAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilhomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	
TOG' VA TOG'OLDI HUDUDLARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	431
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
TURIZM SOHASINING IJTIMOIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	435
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
SANOATDA IQTISODIY MOLIYAVIY HISSOBOTLAR XALQARO STANDARTLARINI RAQOBATBARDOSH KORPORATIV STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLASH.....	442
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ФОНДИРОВАНИЕ И СТРАХОВАНИЕ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ АПК: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	447
Дурманов Акмал Шаймарданович	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI RIVOJLANISHINING STATISTIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	456
Atajanova Guli Maxsudbekovna	
JAHON MOLIYAVIY BOZORLARI BARQARORLIGIGA GLOBAL IQTISODIY INQIROZLAR VA GEOSIYOSIY OMILLARNING TA'SIRI HAMDA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	462
Abdurazakova Nargiza Rixsibayevna	



QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA BOSHQARUV QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI.....	467
Mamadiyarov Dilshad Uralovich	
PAXTA TOZALASH KORXONALARINING TARKIBIY BO'LINMALARIDA MOLIVAVIY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	474
Murodov Orif Jumayevich, G'ulomov Xaydarbek Ilyos o'g'li	
BARQAROR KELAJAK SARI: MAMLAKATDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI MUSTAHKAMLASH	482
Abdullaev Shavkatjon Maxmudillaevich	
ZAMONAVIY IQTISODIY SHAROITLARDI KORXONALARNING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH	487
Abdulakimova Moxina Farxod qizi	
UMUMIY OVQATLANISH SHAHOBCHALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH.....	493
Amiriddinova Muslima Zayniddin qizi	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA MIJOZLAR EHTIYOJINI O'RGANISH VA XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUHLARI	498
Babayeva Lola Ibragimovna	
MINTAQADA TARIXIY VA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA DAVLAT HAMDA XUSUSIY SHERIKCHILIK TIZIMIDAN FOYDALANISH	504
Xusanov Chari Kadirovich	
PROSPECTS FOR IMPROVING INFRASTRUCTURE FOR SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	509
Botirova Xulkar Olimjonovna	
THE IMPACT OF AGRICULTURAL CLUSTERS ON FOOD SECURITY AND MACROECONOMIC STABILITY	514
Sherkulov Shohruh Erkin ugli	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISSIQXONA IQTISODIYOTINI O'RNI VA NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR	520
Otavullaev Sukhrob Sa'dullo o'g'li	
IJTIMOY AHAMIYATI YUQORI LOYIHALARNI DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	524
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQOBAT STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH	529
Sharopova Nafosat Radjabovna, Jamolova Aziza	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILARNING XULQ-ATVORINI O'RGANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	537
Sultonova Zulxumor, Bobojonov Baxrombek Ro'zimovich	
INTERNATIONAL TRADE BETWEEN INTEGRATION AND ISOLATION: INNOVATION AND UNCERTAINTY IN A FRAGMENTING GLOBAL ECONOMY.....	542
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA SIGIRLAR BOSH SONINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	548
Sabit Gabbarov	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI OSHIRISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	552
Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, Xo'janova Husnora	
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SIFAT OMILLARINING TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	558
Bustonov Mansurjon Mardonakulovich	
ОБЩАЯ КОНЦЕПЦИЯ СТАБИЛЬНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ.....	567
Зайналов Джахонгир Расулович	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЫНКОВ КАПИТАЛОВ	571
Хотамкулова Мадина Санжар кизи, Зайналов Джахонгир Расулович	



IPOTEKA KREDITI MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALIY ISHLAR TAHLILI	576
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
KORXONALARDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	581
Abdurashidova Nigora Alisherovna, Abduqodirova Donoxon	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI OSHIRISH OMILLARI VA MEZONLARI	588
Jumanov Ruslanbek Bobojanovich	
O'ZBEKISTONIDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	592
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
STUDY OF THE ECONOMIC EFFICIENCY OF GREEN BONDS, ECOLOGICAL LOANS, AND GREEN INVESTMENT FUNDS, AS WELL AS THEIR IMPORTANCE IN THE FINANCIAL SYSTEM.....	595
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK TERMINOLOGIYASINING ILMIY-TAHLILIIY TALQINI.....	603
Aripov Oybek Abdullayevich	
O'ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	608
Rasulev Alisher Fayziyevich, Qodirov Asliddinxo'ja Mahammadjon o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA OPTIMALLASHTIRISH.....	611
Kdirbaev Amir Marat uli	
ITALIYA VA YAPONIYADA DAVLAT QARZINING UZOQ MUDDATLI BARQARORLIGI: FISKAL QOIDALAR VA QARZ BOSHQARUVI STRATEGIYALARINING QIYOSIY TAHLILI.....	614
Abdurahimov Abror Zafarovich, L.M. Tashpulatova	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ ПЕРСОНАЛИЗАЦИИ, ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	621
Камалова Малика Низамовна, Очилов Акрам Одилович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI IFODALOVCHI ASOSIY OMILLAR	626
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
GLOBAL XAVFLARNING KESKINLASHUVI SHAROITIDA QAYTA SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	631
Norov Zarif Shamsiddinovich	



GLOBAL XAVFLARNING KESKINLASHUVI SHAROITIDA QAYTA SUG'URTANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Norov Zarif Shamsiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: norov_101@gmail.com

ORCID: [0010-0089-4458-110](https://orcid.org/0010-0089-4458-110)

Annotatsiya. Ushbu maqolada global xavflarning kuchayishi sharoitida qayta sug'urta bozorining rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Geosiyosiy beqarorlik, savdo cheklovlari, iqtisodiy sanksiyalar, kiberxavflar va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar qayta sug'urtaning xalqaro faoliyati hamda risklarni boshqarish mexanizmlariga ko'rsatayotgan ta'sir ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda transchegaraviy qayta sug'urta amaliyotidagi regulativ farqlar, konsentratsiya xavfi va axborot almashinuvidagi to'siqlar chuqur tahlil qilingan. IAIS ma'lumotlari asosida global qayta sug'urta mukofotlari, aktivlar tarkibi va bozor segmentlarining geografik taqsimoti bo'yicha kuzatilayotgan tendensiyalar baholangan. Natijalar qayta sug'urta bozorining barqarorligini ta'minlash uchun diversifikatsiya strategiyalaridan foydalanish, kapital bozorlarini jalb etish hamda regulyatorlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: qayta sug'urta, global xavflar, geosiyosiy risklar, parametrik sug'urta, ILS, IAIS, risklarni boshqarish.

Abstract. This article analyzes the development prospects of the reinsurance market under the intensifying landscape of global risks. It examines how geopolitical instability, trade tensions, economic sanctions, cyber threats, and disruptions in supply chains affect the international operations and risk management practices of reinsurance companies. The study highlights the growing importance of innovative solutions such as including regulatory fragmentation, concentration risk, information-sharing barriers, and transparency issues are also thoroughly evaluated. Based on IAIS data, the paper assesses global reinsurance premiums, asset structures, and regional market shares. The findings demonstrate that enhancing diversification strategies, strengthening cooperation between regulators, and expanding access to capital markets are crucial for ensuring the long-term stability and resilience of the reinsurance sector amid heightened global uncertainty.

Key words: reinsurance, global risks, geopolitical uncertainty, parametric reinsurance, ILS, IAIS, risk management.

Аннотация. В данной статье анализируются перспективы развития рынка перестрахования в условиях усиливающихся глобальных рисков. Рассматривается влияние геополитической нестабильности, торговых конфликтов, экономических санкций, киберугроз и нарушений в глобальных цепочках поставок на международную деятельность перестраховочных компаний и их практики управления рисками. В исследовании подчеркивается растущая значимость инновационных решений, а также подробно оцениваются такие вызовы, как фрагментация регулирования, концентрационные риски, барьеры в обмене информацией и проблемы прозрачности. На основе данных IAIS анализируются глобальные перестраховочные премии, структура активов и региональное распределение рыночных долей. Полученные результаты показывают, что усиление стратегий диверсификации, укрепление сотрудничества между регуляторами и расширение доступа к рынкам капитала имеют ключевое значение для обеспечения долгосрочной устойчивости и стабильности сектора перестрахования в условиях растущей мировой неопределенности.

Ключевые слова: перестрахование, глобальные риски, геополитическая неопределённость, параметрическое перестрахование, ILS, IAIS, управление рисками.



KIRISH

Global geosiyosiy xavflarning keskinlashuvi, iqtisodiy beqarorlik va moliya bozorlaridagi volatillik sharoitida qayta sug'urta bozori sug'urta sektorining eng muhim barqarorlashtiruvchi mexanizmlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qurolli mojarolar, savdo keskinliklari, iqtisodiy sanksiyalar, kiberxavflar va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar sug'urtachilar uchun yangi turdagi risklar hamda murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda qayta sug'urta kompaniyalari risklarni geografik diversifikatsiya qilish, kapitalni himoyalash, parametrik sug'urta, Big Data, sun'iy intellekt va ILS kabi innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga majbur bo'lmoqda. Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda qayta sug'urta mukofotlarining 900 milliard dollardan oshishi ushbu bozorning jahon moliyaviy tizimidagi rolini yanada kuchaytirganini ko'rsatadi. Shunday ekan, global xavflar fonida qayta sug'urtani rivojlantirish istiqbollarini chuqur tahlil qilish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda regulyator talablariga moslashuvchan yondashuvlar ishlab chiqish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi tadqiqotlar global qayta sug'urta bozorida geosiyosiy noaniqlik, makroiqtisodiy volatillik va tizimli zarbalar ta'sirining ortib borayotganini ko'rsatmoqda. Swiss Re Institute (2023) va IAIS (2024) kabi ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, geosiyosiy keskinliklar, ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar, inflyatsion bosimlar va foiz stavkalari o'zgaruvchanligi global xavf landshaftini tubdan o'zgartirmoqda. Tadqiqotlar ushbu xavflarning uzatish kanallari bir nechta yo'nalishlarda namoyon bo'lishini ko'rsatadi: investitsiya daromadlarining kamayishi, operatsion uzilishlarning kuchayishi, hayot va hayotdan tashqari sug'urta segmentlarida da'volar sonining ortishi shular jumlasidan.

Cummins va Weiss (2014), shuningdek Outreville (2019) tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda qayta sug'urta yuqori global noaniqlik davrlarida sug'urta sanoati uchun makrobarqarorlashtiruvchi mexanizm sifatida qaralib, kapital bosimini yumshatishi, risklarni diversifikatsiya qilishi va transchegaraviy risk almashinuvini kuchaytirishi ta'kidlanadi. Yangi shakllanayotgan risklar bo'yicha ilmiy adabiyotlar esa kiberxavflar, iqlim bilan bog'liq ofatlar, pandemiyalar kabi tizimli xavf turlarining ortib borayotganini hamda qayta sug'urta mexanizmlarining ilg'or modellashirish va parametrik tuzilmalar asosida takomillashtirilishi zarurligini qayd etadi.

Adabiyotlarning yana bir yo'nalishi qayta sug'urta bozorining tarkibiy transformatsiyasiga qaratilgan. Müller va Schmeiser (2021), shuningdek PWC (2022) tadqiqotlarida kapital bozorlarining, ayniqsa insurance-linked securities (ILS) kabi sug'urta bilan bog'liq qimmatli qog'ozlarning ahamiyati ortib, global qayta sug'urta kapitalining 15 foizidan ortig'ini tashkil etayotgani qayd etiladi. Boshqa bir qator tadqiqotlarda regulyativ parchalanganlik – ya'ni Solvency II, NAIC va Bermuda prudensial tizimlari kabi turli tartibga solish rejimlari – transchegaraviy qayta sug'urta amaliyotida nomuvofiqliklar, muvofiqlik xarajatlarining oshishi va murakkablikning kuchayishiga sabab bo'layotgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, texnologik innovatsiyalar qayta sug'urta jarayonlarini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida baholanadi. InsurTech va RegTech bo'yicha ilmiy manbalarda Big Data analitikasi, sun'iy intellekt, blokcheyn asosidagi aqlli shartnomalar hamda ilg'or ofat modellari underwriting aniqligini oshirishi, shaffoflikni kuchaytirishi va operatsion samaradorlikni yaxshilashi ko'rsatiladi. Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar qayta sug'urta bozorining uzoq muddatli barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun risklarni diversifikatsiya qilish strategiyalarini kuchaytirish, xalqaro regulyatorlar o'rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish hamda raqamli texnologiyalarni keng integratsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi qayta sug'urta bozoriga oid ma'lumotlarni xalqaro regulyatorlar hisobotlari, Swiss Re Institute va IAIS statistik bazalaridan yig'ish hamda ularni taqqoslama va trend tahlili orqali baholashga asoslanadi. Shuningdek, geosiyosiy xavflar va investitsion tarkib bo'yicha indikatorlar o'zaro bog'liqlikda iqtisodiy-analitik usullar bilan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geopolitik xatarlar sug'urta sektoriga bir nechta uzatish kanallari orqali ta'sir ko'rsatadi: iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi, investitsiya portfellaridagi xavflarning ortishi, operatsion uzilishlar va da'volar sonining ko'payishi shular jumlasidan. Ayniqsa, hayot sug'urtasi kompaniyalari investitsion portfellarida sezilarli bosimni his qilmoqda, umumiy (non-life) sug'urtalovchilar esa mahsulotlar hamda majburiyatlar orqali ikkilamchi ta'sirlarga duch kelmoqda. Bundan tashqari, regulyator o'zgarishlari, kiberxavfsizlikka tahdidlar, ta'minot zanjirlarining uzilishi va iqtisodiy sanksiyalar sug'urtachilar uchun operatsion xatarlarni kuchaytirmoqda. Shu bois, ushbu



kanallarni to'g'ri anglash sug'urtachilar uchun risklarni samarali boshqarishning muhim sharti hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Geosiyosiy xavf va uning sug'urta sohasiga ta'sir doirasi¹

Geosiyosiy xavf	Hayot sug'urtasi (Life)	Hayotdan tashqari sug'urta (Non-life)
Siyosiy beqarorlik (saylovlardagi tartibsizliklar, fuqarolik urushi, mojarolar iqtisodiy pasayishga olib kelishi mumkin)	Aholi daromadining kamayishi, mahsulotlarga talabning tushishi, polislarni bekor qilish darajasining oshishi va investitsiya daromadlariga ta'sir.	Mulkiy zarar va biznesning to'xtashi bilan bog'liq yuqori da'volar, narxlash strategiyalariga o'zgartirishlar kiritish va biznesni davom ettirishda qiyinchiliklar.
Savdo mojarolari va iqtisodiy sanksiyalar (savdo urushlari, iqtisodiy sanksiyalar iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi, bozor beqarorligini oshiradi)	Iste'molchilar xarajatlarning qisqarishi va valyuta xavflarining oshishi.	Global ta'minot zanjiridagi uzilishlar va tartibga solishdagi qiyinchiliklar biznes uzilishi da'volariga va investitsiya portfellariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.
Harbiy mojarolar va terrorizm (iqtisodiy faollikka ta'sir qiladi, jismoniy zarar keltiradi va o'lim ko'rsatkichlarini oshiradi)	Sug'urta da'volari va risklarning ortishi.	Mulkiy zarar va biznes uzilishi da'volari, narxlash strategiyalariga va operatsion rejalarga tuzatishlar kiritishni talab qiladi.
Kiberxavflar va kiberurush (kompyuter tizimlariga hujumlar, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan hujumlar boshqa davlatning muhim infratuzilmasiga zarar yetkazishi)	Ma'lumotlar oqishi, tartibga soluvchi jarimalar va obro'ga putur yetkazish.	Kiber sug'urta bo'yicha da'volarning ortishi va yuqori risklar, kuchaytirilgan kiberxavfsizlik choralari va narxlashdagi o'zgarishlar.
Qonunchilik va siyosatdagi o'zgarishlar (hukumat siyosati va qoidalaridagi o'zgarishlar global barqarorlik va savdoga ta'sir qiladi, noaniqlik va muvofiqlik muammolarini yuzaga keltiradi)	Muvofiqlik xarajatlarning oshishi foydalilikka salbiy ta'sir qiladi, mahsulot va narxlash strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.	Sug'urta amaliyotlariga va bozor kirish imkoniyatlariga ta'sir ko'rsatib, yuqori muvofiqlik xarajatlarga olib keladi.
Ijtimoiy tartibsizliklar va fuqarolik harakatlari (noroziliklar, namoyishlar, ish tashlashlar iqtisodiy faollikka ta'sir qiladi)	Mahsulotlarga talabning kamayishi va operatsion qiyinchiliklar.	Mulkiy zarar bo'yicha da'volar va biznes uzilishi, sug'urta va narxlashdagi o'zgarishlarni talab qiladi.
Savdo urushlari va proteksionizm (global ta'minot zanjirlarini buzadi va xarajatlarni oshiradi)	Mahsulotlarga talabning kamayishi va investitsiya daromadlariga ta'sir.	Da'volar xarajatlari va biznes uzilishi ortadi, bu esa sug'urtada ehtiyotkorlikni oshiradi va polis narxlarining ko'tarilishiga olib keladi.

Sug'urta bozorida alternativ aktivlarning ulushi tobora ortib borayotgani moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan alohida e'tiborni talab etadi. Xususan, uzatish kanallari ta'siri ikki asosiy omil orqali namoyon bo'ladi: birinchidan, sug'urtachilar portfelidagi alternativ aktivlarning ulushi ichki xavf sifatida shakllanadi, ikkinchidan esa, moliya bozoridagi umumiy alternativ investitsiyalar hajmidan sug'urtachilar hissasi tashqi xavf ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agar portfel tarkibida alternativ aktivlar ulushi past bo'lsa, hatto katta yo'qotishlar sodir bo'lsa ham, ular sug'urtachilarning umumiy solventligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois, risklarning asosiy qismi ayrim yirik sug'urtachilarda to'plangani, ko'pchilik ishtirokchilarning esa ehtiyotkorlik bilan diversifikatsiya qilayotgani moliyaviy barqarorlikka nisbatan potentsial xavfni kamaytiradi (2-jadval).

¹ Global Insurance Market Report 2025.ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

2-jadval. Transchegaraviy qayta sug'urta amaliyotida risklar va ularni boshqarish yechimlari²

Asosiy yo'nalish	Xavotirlar	Yechimlar
Regulyativ farqlardan foydalanish xavfi	Kapital, risk va moliyaviy boshqaruv uchun qo'llanadi, lekin regulyativ farqlardan foydalanish xavfi mavjud.	Transchegaraviy bitimlarda yagona standartlar ishlab chiqish va regulyatorlar o'rtasida muvofiqlikni kuchaytirish.
Konsentratsiya riski	Bir nechta reinsurer va yurisdiksiyalar hajmning katta qismini egallab olishi tizimli risklarni kuchaytirishi mumkin.	Diversifikatsiya mexanizmlarini kengaytirish va nazorat organlari tomonidan limitlar belgilash.
Bilim yetishmasligi xavfi	Turli yurisdiksiyalardagi prudensial ramkalarni to'liq tushunmaslik samarali nazoratga to'sqinlik qiladi.	Regulyatorlar va sug'urtachilar uchun xalqaro ta'lim dasturlari va axborot almashuv platformalarini joriy qilish.
Axborot almashishdagi to'siqlar	Yetarli ma'lumot bo'lmagani risklarni kompleks tushunishni qiyinlashtiradi	Mamlakatlararo hamkorlikda yagona hisobot standartlari va shaffoflik talablarini ishlab chiqish.
Foydalilik maqsadlari to'qnashuvi	Aktiv menager va qayta sug'urtar bir guruh tarkibida bo'lsa, foyda maqsadlari qayta sug'urta risk ishtahasiga ta'sir qilishi mumkin.	Mustaqil risk boshqaruv komitetlari tashkil etish va manfaatlar to'qnashuvini cheklovchi ichki siyosatlarni joriy etish.
Murakkablik ortishi	Retrotsessiya va SPV(special purpose vehicles) kabi elementlar shaffoflikni pasaytirishi va tushunishni qiyinlashtirishi mumkin.	Murakkab shartnomalar uchun standartlashtirilgan hujjatlash va regulyatorlarning majburiy ekspertizasi.
Buxgalteriya standartlariga rioya	Zaxiralar hisobini qanday va qanchalik tez-tez tekshirish lozimligi savollar tug'diradi.	Buxgalteriya standartlarini uyg'unlashtirish va muntazam audit mexanizmlarini joriy etish.
Qayta qabul qilish riski (Recapture riski)	Qaytarib olish jarayonida likvid bo'lmagan yoki murakkab aktivlar muammolari yuzaga kelishi mumkin.	Qayta qabul qilish riski bo'yicha aniq protseduralarni ishlab chiqish va portfelni qayta balanslash uchun maxsus rezerv fondlarini yaratish.
Aktivlarni farqlash qiyinligi	Moliyaviy hisobotlarda ceded va retained aktivlarni ajratish murakkabligi mavjud.	Aktivlarni ajratish bo'yicha majburiy reporting standartlarini joriy etish va xalqaro IFRS qoidalarini kuchaytirish.

Qayta sug'urta jahon moliya tizimida risklarni taqsimlash va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda qayta sug'urta bozori global miqyosda yangi chaqiriqlar va imkoniyatlarga duch kelmoqda.

Birinchidan, geosiyosiy va iqtisodiy noaniqliklar — qurolli mojarolar, savdo keskinliklari va inflyatsion bosimlarning kuchayishi qayta sug'urtaning xalqaro faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Reasurans kompaniyalari geografik diversifikatsiyani kuchaytirishga hamda turli hududlardagi siyosiy risklarni yanada chuqurroq baholashga majbur bo'lmoqda.

Ikkinchidan, katta xavf va yangi shakllanayotgan risklar — kibexavf, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va pandemiyalar qayta sug'urta portfellarida tobora katta o'rin egallamoqda. Ayniqsa, parametrik qayta sug'urta, ya'ni ma'lum indikatorlar asosida avtomatik to'lov mexanizmi jadal ommalashib bormoqda.

Uchinchi muhim yo'nalish kapital bozorlarining rolidir. An'anaviy qayta sug'urtadan tashqari, kapital bozori orqali Insurance-Linked Securities (ILS) — sug'urta bilan bog'liq qimmatli qog'ozlar ulushining ortib borishi reasurans kompaniyalari uchun qo'shimcha moliyaviy manba yaratib, risklarni kengroq diversifikatsiya qilish imkoniyatini bermoqda.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlari qayta sug'urta faoliyatida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Katta ma'lumotlar (Big Data), sun'iy intellekt (AI) va blokcheyn texnologiyalarining qo'llanilishi underwriting, risk baholash va da'volarni boshqarishni yanada shaffof, tezkor va samarali qilmoqda.


Beshinchidan, regulyator talablari qayta sug'urta kompaniyalaridan yuqori kapital yetariliginu ta'minlashni talab qilmoqda. Solvency II kabi xalqaro standartlar bozorga kirish uchun ma'lum cheklovlar yaratgani bilan, tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

² Maullif tomonidan adabiyotlarni o'rganish davomida tayyorlandi.




Global moliyaviy beqarorlik sharoitida qayta sug'urta bozori sug'urta sektorining eng muhim barqarorlashtiruvchi mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Xalqaro sug'urta nazoratchilari assotsiatsiyasi (IAIS) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qayta sug'urta bozori hajmi yildan-yilga kengayib, 2023-yil oxiriga kelib yalpi qayta sug'urta mukofotlari 900 milliard AQSH dollaridan oshgan (1-rasm).

Qayta sug'urta mukofotlari (2003–2023)



1-rasm. Qayta sug'urta mukofotlari tahlili³

Shu bilan birga, sof qayta sug'urta mukofotlari 2023-yilda 14 foizga o'sib, 630 milliard dollardan ortgan. Ushbu ko'rsatkich qayta sug'urta bozorining global moliya tizimidagi barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Bunda Bermuda va AQSH birgalikda global sof qayta sug'urta mukofotlarining 50 foizidan ortig'ini tashkil etib, dunyo bo'yicha eng yirik qayta sug'urta bozori sifatida yetakchi o'rin egallab kelmoqda (2-rasm).



2-rasm. 2023-yil yakuni bo'yicha mintaqalarning yalpi va sof qayta sug'urta mukofotlaridagi ulushi tahlili (%)⁴


IAIS ma'lumotlariga ko'ra, qayta sug'urta kompaniyalari investitsion faoliyatida asosiy aktiv sinflari korporativ qarz majburiyatlari (24%) va aksiyalar (25%) hisoblanadi. Ushbu tarkib qayta sug'urta kompaniyalarining yuqori likvidlik hamda daromadlilikni ta'minlash uchun barqaror moliyaviy instrumentlarga kengroq tayanayotganini ko'rsatadi (3-rasm).

3 IAIS SWM 2024 (reinsurance component and GRMS) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4 IAIS SWM 2024 (reinsurance component and GRMS) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



Qayta sug'urta sektorining aktivlar tarkibi, %

3-rasm. 2023-yil yakuni bo'yicha qayta sug'urta sektorining aktivlar tarkibi, (%)⁵

Umuman olganda, qayta sug'urtachilarning kreditlar, ipoteka va ko'chmas mulkka yo'naltirilgan sarmoyalari cheklangan bo'lib qolmoqda. Bu holat bir tomondan risklarni diversifikatsiya qilishning yetarli darajada amalga oshirilayotganini, boshqa tomondan esa hayot va umumiy qayta sug'urta segmentlari tarkibining hududiy farqlari bilan izohlanadi. Xususan, Amerikada hayot qayta sug'urta biznesining yuqori ulushi investitsion portfellarda uzoq muddatli aktivlarga nisbatan ko'proq talabni shakllantirgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, global xavflarning keskinlashuvi sharoitida qayta sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish O'zbekiston sug'urta bozorining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholashda qayta sug'urtaning qamrov darajasi uchun maxsus indikatorni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu indikator sug'urtachilarning yuqori xavfli majburiyatlarni qayta taqsimlashdagi faoliyatini normativ asosda baholash imkonini yaratib, bozor ishtirokchilarining risklarni boshqarish madaniyatini oshiradi.

Ikkinchidan, O'zbekiston sharoitida qayta sug'urta shartnomalarini tanlashda riskga asoslangan reyting tizimini yaratish zarur. Ushbu tizim kompaniyalarga risklarni differensial baholash, ularni segmentlashtirish va har bir xavf turiga mos optimal qayta sug'urta sxemasini aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv bozorning sog'lom raqobatini shakllantirib, qayta sug'urta portfellarining umumiy samaradorligini oshiradi.

Uchinchidan, xalqaro tajribada keng qo'llanilayotgan katastrofik obligatsiyalar (Cat-bonds) va insurance-linked securities (ILS) kabi innovatsion qayta sug'urta vositalarini milliy qonunchilik doirasida sinov tariqasida joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunday instrumentlar tabiiy ofatlar, epidemiya, iqlim risklari va tizimli moliyaviy zarbalarga qarshi qo'shimcha moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qilib, sug'urta sektorining kapital yetarililigi mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, davlat ishtirokidagi qayta sug'urtalovchi tashkilotni tashkil etish O'zbekiston sug'urta bozorining institutsional barqarorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunday tuzilma bir tomondan yirik majburiyatli risklarni markazlashtirilgan tartibda qayta taqsimlaydi, ikkinchi tomondan esa xususiy sug'urta kompaniyalarini yirik, uzoq muddatli va infratuzilmaviy loyihalarda faol ishtirok etishga rag'batlantiradi. Bu esa sug'urta bozorining investitsion jozibadorligini oshirish va keng ko'lamli iqtisodiy loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Umuman olganda, taklif etilgan ushbu mexanizmlar qayta sug'urta tizimini modernizatsiya qilish, bozor ishtirokchilarining moliyaviy chidamliligini oshirish, global xavflarga moslashuvchanlikni kuchaytirish hamda sug'urta sektorini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishda muhim o'rin tutadi.

⁵ IAIS SWM 2024 (reinsurance component and GRMS) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Cummins, J. D., & Weiss, M. A. (2014). Systemic risk and the U.S. insurance sector. *Journal of Risk and Insurance*, 81(3), 489–528. <https://doi.org/10.1111/j.1539-6975.2012.01503.x>
2. IAIS. (2024). Global Insurance Market Report (GIMAR). International Association of Insurance Supervisors. <https://www.iaisweb.org>
3. Müller, H., & Schmeiser, H. (2021). The impact of alternative capital on reinsurance markets. *Geneva Papers on Risk and Insurance – Issues and Practice*, 46(4), 627–651.
4. Outreville, J. F. (2019). *Theory and practice of insurance*. Springer.
5. PWC. (2022). *Reinsurance 2030: Capital, technology, and the future of risk*. PricewaterhouseCoopers.
6. Swiss Re Institute. (2023). Sigma Report: World insurance 2023 – Navigating volatility. Swiss Re. <https://www.swissre.com>
7. Tennyson, S., & Weiss, M. A. (2023). Global trends in reinsurance markets under geopolitical instability. *Journal of International Financial Markets, Institutions & Money*, 84, 101–129.
8. Von Dahlen, S., & Von Peter, G. (2012). Natural catastrophes and global reinsurance: The sensitivity of reinsurance markets. Bank for International Settlements Working Paper No. 393.
9. Zanjani, G. (2018). Cross-border reinsurance and regulatory arbitrage. *Journal of Financial Regulation*, 4(2), 312–336.
10. Cummins, J. D., Phillips, R. D., & Smith, S. D. (2020). The role of reinsurance in managing emerging risks: Climate, cyber, and pandemics. *Risk Management and Insurance Review*, 23(2), 175–200.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>